

## ILM-SAODAT KALITI

Davronov Javohir Ilhom o'g'li

Qarshi shahar 1-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11319293>

*Annotatsiya. Ilm va saodat nomli ikki tushuncha bir-biridan paydo bo'ladi. Ilm bu diniy, falsafiy, dunyoviy, nazariy va mantiqiy ko'nikmalardir. Biz ilmni kalit deb oladigan bo'lsak saodat esa tinchlik, erkinlik,adolat, yaxshilik va mehrdan iborat eshiklar bo'lib bu eshiklarga faqat ilm orqali erishish mumkin. Agar inson o'z ilmini yorqin qirralarini namoyish etsa va rivojlantirsa, shu inson beshta saodat eshiklariga ega bo'ladi va abadiy baxtli hayot kechiradi.*

*Kalit so'zlar: Ilm, saodat, jadidlar, renesans, ajdodlar.*

## KNOWLEDGE IS THE KEY TO HAPPINESS

*Abstract. The two concepts of knowledge and happiness arise from each other. Science is religious, philosophical, secular, theoretical and logical skills. If we take science as the key, then happiness is the doors of peace, freedom, justice, goodness and love, and these doors can be reached only through science. If a person shows and develops the bright aspects of his knowledge, this person will have the five doors of happiness and will live a happy life forever.*

*Key words:* Science, happiness, ancient times, renaissance, ancestors.

## ЗНАНИЯ – КЛЮЧ К СЧАСТЬЮ

*Аннотация. Два понятия, называемые знанием и счастьем, возникают друг из друга. Наука – это религиозные, философские, светские, теоретические и логические навыки. Если принять за ключ науку, то счастье – это двери мира, свободы, справедливости, добра и любви, и достичь этих дверей можно только через науку. Если человек проявит и разовьет яркие стороны своих знаний, у этого человека появятся пять дверей счастья и он будет жить счастливой жизнью вечно.*

*Ключевые слова:* Наука, счастье, древние времена, Возрождение, предки.

---

Ilm va saodat haqida gap ketganda ulug' ajdodlarimizning bir qancha fikrlarini eslasak.

Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiyning: "Dunyoda turmoq uchun dunyoning ilmini bilish lozim" degan hikmatli so'zi hech bir insonni o'zining boy ma'nosi va merosiga e'tiborini tortmasdan qo'ymaydi. Behbudiylar "dunyoda" turmoq uchun deganda hayotimizning past balandliklari, qiyin vaziyatlariga duch kelganimizda yiqilmasligimiz va sinmasligimizni nazorga tutgan, "dunyoning ilmi" deganda esa bizning sabrimiz, fikrlashimiz, ilmimiz va tadbirkorligimizni nazarga tutgan. Yana bir allomamiz Abdurauf Fitrat ayganidek: "Har bir

millat taraqqiyoti uchun ilm asosiy sababdir”. Bu jumlalarda ilm insonni va millatni yuksaltiruvchi yagona kuch degan ma’no ilgari surilyotganini yaqqol ko’rishimiz mumkin.

Davlatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ham bejizga ajdodlarimizga va ilm-saodatga e’tibor qaratmayaptilar. Ilm va saodatni targ’ib qiluvchilar yurtimiz tarixida uch renesans davriga bo’lingan. Birinchi davr Somoniylar, saljuqiylar, g’aznaviylar va xorazmshohlar hukmronligi davri, ya’ni IX-XIII asrlarni o’z ichiga oladi. Bu davrlarda Abu Rayxon Beruniy birinchi globusga asos soladi. Abu nasr Farobi Nilometrga asos soldi, Abu Ali ibn Sino esa birinchi mukammal tibbiyot haqidagi kitob, ya’ni “Tib qonunlar”ni yaratdi. Bu va boshqa ajdodlarimizni allomalar deyiladi. Alloma so’zi arabcha “chuqur olim” degan ma’noni anglatadi. Yuqorida aytib o’tilganidek, ilm saodat eshiklarini ochadi va eshiklar sizni shon-shuhratli va himoyali qiladi.

Masalan, Abu nasr Farobi Nilometri yaratgani uchun misrliklar unga atab, haykal o’rnatishgan. Alisher Navoi “Hamsa” asarini yozgani uchun Amir ul-Muqarrab unvoniga sazovor bo’ladi va bu unvon bilan u davlarni har qanday ishlariga aralashish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Ikkinchi davrda Amir Temur XIV-XVI asrlar davomida san’atga, me’morchilikka kata e’tibor qaratgan Rennesans davrini boshlab berdi. Registon, Go’ri Amir, Hirot jome masjidi shulr jumlasidandir. Amir Temur davrida Temuriylar imperiyasi ilm-fanga va hunarmandchilikkakatta e’tibor beriladi va shu sababli imperianing har bir saroyida san’at ustalarining eng mohirlari ijod qilishadi. Hattoki ilm-fan rivojlanganidan Mirzo Ulug’bek rasadxonasi quriladi.

Uchinchi rennesans davrida jadidchilik harakatidan bugungi kungacha davom etib kelyapti. Jadidchilik harakati 1920-yillardagi yorqin namoyondalaridan Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Mahmubxo’ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqa jadidchilardan iborat. Turkiston ozodligi uchun ilm-fanni, san’atni va insonlarning erkinlikka bo’lgan umidlarini targ’ib qilish orqali rus hukmronligiga qarshi kurashganlar. Ular yoshlarni o’qitish, bilimli qilish uchun bir qancha maktab va madrasalar qurishgan. Hatto o’z pullarini ayamay, chet elga o’qishga yuborishgan. Masalan, Hamza Hakimzoda Niyoziy bir qancha maktablar va Ozbekistondagi birinchi teatrni qurdirgan. Jadidlarimiz birinchi teatr qurilganda insonlar fikrlarini yuksaltirish uchun eng yaxshi tanlov ekanligini tushunishdi. Xozirgi kunda yoshlar teatrga kirishga qiziqmasalarda, avvallari teatrga juda ko’p e’tibor qaratilgan va tomoshaga borilgan.

Ozbekistondagi birinchi spektakl Buxoroi sharif, Mahmudxo’ja Behbudiyning “Padarkush” asaridir.

Jadid bobolarimiz boshlagan jarayonlar hali poyoniga yetgani yo'q, ular davom etmoqda, deb o'ylayman. Ayniqsa, sho'ro tuzumi sharoitidagi 70 yillik «Na meste shagom marsh» jarayoni hisobdan olib tashlansa, bobolarimizning boshlagan ko'p ishlar ana endi boshlanishi kerakligini anglab qolamiz.

Jadidchilar uchun adabiyot oinayi millatdur, u faqat yurak zamzamasi emas, tafakkur jilosi bo'lmos'i lozim, u faqat hislarga emas, ong va sezim taraqqiyotiga ta'sir o'tkazmog'i darkor.

Buning uchun adabiyot va ijod ahli xalq dardi bilan, uning orzu-armoni bilan yashamog'i kerak.

Ma'rifatchi bobolarimizning bu o'gitlari bugun ham dolzarb. Mustaqillikdan keyin adabiyotimizda boshlangan yangilanish jarayoni faqat zamonga hamohanggina emas, elu yurt taqdiriga hamnafas bo'lsin. Ayrim kitoblarda namoyon bo'layotganidek – G'arbning mashhur asarlari, adabiy tajribalarini ko'r-ko'rona, rangsiz va jonsiz takror etish yo'lidan emas, bobolarimiz aytganidek, muvozanat yo'lidan, o'rganishga arziyidigan tajribalarni rad etmagan holda, joni va ruhi milliy zamindan uzilmagan yo'lidan borish, millatni ayrim ongu shuursiz chalamullalar «milliy meros», «milliy an'ana» deb a'yuhannos solib himoya qilayotgan zug'umkor «milliy qadriyatlar»dan himoya qilish kerak.

Mahmudxo'ja Behbudiy qoldirgan meros bugungi avlod uchun bebahodir.

Zamondoshlaridan biri bu zotni «Turon-Turkiston quyoshi» deb ta'riflagan edi. Bu quyosh bugunning zulmatini ham yoritib turibdi. Ulug' donishmand bobomizning hikmatu nasihatlarni o'qir ekanman, buyuk ziyokor tafakkuri, matonati va xotirasi oldida bosh egaman.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, ilm bu saodat kaliti, ekanligi davrlar osha o'z isbotini topib kelyapti.

## REFERENCES

1. Adabiyot 8-sinf. Darslik. Toshkent. 2019
2. U. Tursunov, J. Muhtorov, Sh. Rahmatullayev “Hozirgi o'zbek adabiy tili” Toshkent O'zbekiston, 1992.
3. Alimova D., Rashidova D. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tafakkuri. -Toshkent. Akademiya. 1999
4. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri. – Toshkent. Universitet. 1999